

Zamonaviy davrda O‘zbekiston kulolchilik maktablarini o‘rganishning tarixiy zarurati

TDSHU dotsenti, PhD Bobir Odilov

Annotatsiya: Mazkur ilmiy maqolada O‘zbekistonda shakllangan kulolchilik maktablarini zamonaviy ilmiy yondashuvlar asosida o‘rganishning tarixiy, madaniy va ijtimoiy zarurati tahlil qilinadi. Kulolchilik faqat amaliy hunarmandchilik turi sifatida emas, balki mahalliy jamiyatning iqtisodiy tuzilishi, ustoz–shogird an‘analari, madaniy xotira, estetik qarashlar hamda hududiy identitet bilan uzviy bog‘liq murakkab ijtimoiy-madaniy tizim sifatida ko‘rib chiqiladi. Maqolada kulolchilik maktablarining tarixiy shakllanishi, ekologik sharoitlar bilan aloqasi, ishlab chiqarish texnologiyalarining hududiy xususiyatlari hamda mustaqillikdan keyingi davrda hunarmandchilikni davlat miqyosida qo‘llab-quvvatlash jarayonlari yoritiladi. Shuningdek, zamonaviy antropologik va madaniyatshunoslik yondashuvlari asosida kulolchilikni madaniy meros, identitet va ijtimoiy xotira elementi sifatida qayta baholash zarurati asoslab beriladi. Tadqiqot kulolchilik maktablarini o‘rganish nafaqat tarixiy merosni tiklash, balki zamonaviy madaniy rivojlanish, turizm va mahalliy iqtisodiyot barqarorligini ta‘minlashda ham muhim omil ekanini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: kulolchilik maktablari, hunarmandchilik, madaniy meros, ustoz–shogird an‘anasi, identitet, madaniy xotira, an‘anaviy san‘at, ijtimoiy institut, Rishton, G‘ijduvon, Xorazm kulolchiligi.

O‘zbekiston hududi qadimdan Markaziy Osiyodagi yirik hunarmandchilik markazlaridan biri sifatida shakllangan bo‘lib, ayniqsa kulolchilik san‘ati o‘zining uzluksiz tarixiy taraqqiyoti, hududiy maktablarining xilma-xilligi hamda ishlab chiqarish va madaniy hayot bilan uzviy bog‘liqligi bilan ajralib turadi. Zamonaviy davrda kulolchilik maktablarini qayta o‘rganish va ilmiy jihatdan baholash zarurati tobora ortib bormoqda, chunki global madaniy jarayonlar, sanoat ishlab chiqarishining kengayishi hamda turmush tarzining o‘zgarishi an‘anaviy hunarmandchilik tarmoqlarining sekin-asta yo‘qolish xavfini yuzaga keltirmoqda. Shu sababli kulolchilikni faqat tarixiy hunar sifatida emas, balki jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy tuzilmasini ifodalovchi tirik madaniy meros sifatida o‘rganish muhim ilmiy vazifaga aylanmoqda.



Kulolchilik insoniyat tarixidagi eng qadimiy ishlab chiqarish faoliyatlaridan biri bo‘lib, u neolit davridayoq shakllangan. Dastlab loydan yasalgan idishlar qo‘lda tayyorlangan va ochiq olovda pishirilgan. Vaqt o‘tishi bilan kulolchilik texnologiyasi takomillashib, maxsus xumdonlar, kulol charxi va sirlangan sopol buyumlar paydo bo‘ldi. Bu jarayon insoniyatning o‘troq turmush tarziga o‘tishi, dehqonchilik va chorvachilik rivojlanishi bilan chambarchas bog‘liq bo‘ldi. Chunki oziq-ovqatni saqlash, suv tashish, don yig‘ish va pishirish uchun sopol idishlarga ehtiyoj ortib bordi. Natijada kulolchilik kundalik hayotning ajralmas qismiga aylandi.

O‘rta Osiyo hududida olib borilgan arxeologik qazishmalar Sopollitepa, Afrosiyob, Qoratepa, Dalvarzintepa, Varaxsha kabi qadimiy manzilgohlarda sopol buyumlar keng qo‘llanilganini ko‘rsatadi¹. IX–XII asrlarda esa kulolchilik ishlab chiqarishi yuqori darajada rivojlanib, naqsh va ranglar uyg‘unligi bilan ajralib turuvchi nafis sopol buyumlar yaratilgan. Mo‘g‘ullar istilosi davrida ko‘plab hunarmandchilik markazlari tanazzulga uchragan bo‘lsa-da, keyingi asrlarda kulolchilik yana tiklanib, Temuriylar davrida yuqori taraqqiyot bosqichiga ko‘tarilgan. Ayniqsa me’moriy bezaklarda ishlatilgan koshinlar, sirlangan sopol plitalar va naqshli g‘ishtlar kulolchilikning qurilish san’ati bilan bog‘lanib ketganini ko‘rsatadi.

O‘zbek xonliklari davrida esa hududlar o‘rtasidagi siyosiy aloqalarning zaiflashuvi natijasida har bir mintaqada o‘ziga xos kulolchilik maktablari shakllandi. Bu maktablar ishlab chiqarish texnologiyasi, bezak uslubi, rang tanlovi va mahsulot shakli bilan bir-biridan farq qila boshladi. Rishton, G‘ijduvon, Urgut, Shahrisabz, Xiva, Toshkent vohasi va boshqa markazlar o‘zining mustaqil ijodiy maktabiga ega bo‘lib, avloddan avlodga o‘tib kelayotgan ustoz–shogird an’anasi orqali hunar davomiyligini ta’minladi.

Kulolchilikni o‘rganishdagi muhim jihatlardan biri uning ijtimoiy hayot bilan bog‘liqligidir. Kulol ustaxonalari ko‘pincha mahalla iqtisodiy hayotining markazlaridan biri bo‘lgan. Ustoz va shogirdlar o‘rtasidagi munosabatlar nafaqat texnologik bilim uzatish, balki axloqiy tarbiya, mehnat madaniyati va kasbiy etikani shakllantirishga xizmat qilgan. Shogird ustozning roziligini olmaguncha mustaqil usta

¹ Асқаров, А.А. Сополлитепа. – Ташкент: Фан, 1977. – 160 б.; Шишкин В. А. Варахша. Дворец бухархудатов. – Москва: Издательство Академии наук СССР, 1963. – 228 с.; Альбаум Л. И. Живопись Афрасиаба. – Ташкент: Фан, 1975. – 172 с.; Ртвеладзе Э. В. Далверзинтепе – кушанский город на юге Узбекистана. – Ташкент: Фан, 1978. – 186 с.; Пугаченкова Г. А., Ртвеладзе Э. В. Кара-тепе у Старого Термеза. – Москва: Наука, 1971. – 160 с.; Пугаченкова Г. А. Искусство Бактрии эпохи Кушан. – Москва: Искусство, 1979. – 240 с.; Шишкин В. А. Афрасиаб – древний Самарканд. – Ташкент: Издательство АН УзССР, 1966. – 184 с.



sifatida faoliyat boshlay olmagan. Bu tizim hunarmandchilikni oddiy ishlab chiqarishdan ijtimoiy institut darajasiga ko'targan.

Zamonaviy antropologik yondashuvlar kulolchilikni faqat moddiy madaniyat elementi sifatida emas, balki jamiyatning madaniy xotirasi va identitetini ifodalovchi vosita sifatida talqin etadi. Kulolchilik buyumlarida aks etgan naqshlar, ranglar va shakllar ma'lum bir hududning tarixiy tajribasi, estetik qarashlari va ramziy dunyoqarashini ifodalaydi. Shu sababli har bir kulolchilik maktabi mahalliy identitetning muhim belgisi hisoblanadi.

Rishton kulolchilik maktabi bu borada alohida o'rin tutadi. Bu hududda mavjud noyob gil tuproq va ishqorli sir texnologiyasi natijasida o'ziga xos ko'k rang ustun bo'lgan sirlangan sopol buyumlar yaratiladi. Rishton ustalari tayyorlagan lagan, kosa va xumlar shakli hamda bezak uslubi bilan boshqa hudud mahsulotlaridan keskin farq qiladi. Ushbu maktabning rivojlanishida mahalliy xomashyo, ekologik sharoit va ustoz-shogird an'anasi muhim rol o'ynagan.

Buxoro-Samarqand kulolchilik maktabida esa qo'rg'oshinli sirlar va sarg'ish-yashil ranglar ustunlik qiladi. Bu maktab buyumlarida o'simliksimon naqshlar, ayrim hollarda esa hayvon tasvirlari uchraydi. G'ijduvon ustalari tomonidan yaratilgan sopol buyumlar o'zining yorqin ranglari va murakkab bezak tizimi bilan ajralib turadi.

Xorazm kulolchilik maktabi esa geometrik naqshlar, to'q ranglar va arabeska uslubidagi bezaklari bilan boshqa maktablardan farq qiladi. Bu yerda tayyorlangan bodiya va boshqa idishlar o'zining shakl va rang uyg'unligi bilan e'tiborni tortadi.

XX asr boshlarida sanoat mahsulotlarining keng kirib kelishi kulolchilik mahsulotlariga bo'lgan talabni pasaytirdi². Ko'plab ustaxonalar faoliyati susaydi³. Biroq sovet davrida hunarmandchilikni qayta tiklashga qaratilgan ustaxonalar, o'quv kombinatlari tashkil etildi. Mustaqillikdan keyin esa milliy merosga bo'lgan e'tiborning ortishi kulolchilik maktablarining qayta tiklanishiga olib keldi. Davlat tomonidan qabul qilingan qarorlar, hunarmandchilik yarmarkalari va xalq amaliy san'atini qo'llab-quvvatlash dasturlari kulollar faoliyatini jonlantirdi.

Bugungi kunda kulolchilik nafaqat mahalliy ehtiyojni qondirish, balki turizm, eksport va madaniy diplomatiya vositasi sifatida ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Zamonaviy ustalar an'anaviy uslublarni saqlagan holda yangi shakl va dizaynlarni

² Фахретдинова Д. А. Декоративно-прикладное искусство Узбекистана. — Ташкент: Издательство литературы и искусства им. Гафура Гуляма, 1972. — С. 46-50.

³ Сухарева О. А. Бухара XIX — начала XX века: Позднефеодальный город и его население. — М.: Наука, 1966. — 327 с.



yaratishga intilmoqda. Virtual muzeylar, raqamli kataloglar va xalqaro ko'rgazmalar orqali O'zbekiston kulolchilik san'ati jahon miqyosida tanilmoqda.

Shu bois kulolchilik maktablarini o'rganish tarixiy zarurat sifatida namoyon bo'ladi. Bu jarayon nafaqat madaniy merosni saqlash, balki mahalliy iqtisodiyotni rivojlantirish, yosh avlodni kasb-hunarga jalb qilish hamda milliy identitetni mustahkamlashga xizmat qiladi. Kulolchilikni ilmiy jihatdan chuqur o'rganish orqali an'anaviy bilimlarni saqlab qolish, ekologik muvozanatni hisobga olgan holda ishlab chiqarish texnologiyalarini takomillashtirish va madaniy merosni global miqyosda targ'ib etish imkoniyati yaratiladi.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy davrda O'zbekiston kulolchilik maktablarini o'rganish tarixiy merosni saqlash, madaniy xotirani tiklash va ijtimoiy rivojlanishni ta'minlash nuqtai nazaridan muhim ilmiy vazifa hisoblanadi. Kulolchilik hunari asrlar davomida shakllangan ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy tajribaning mahsuli bo'lib, uni chuqur tadqiq etish zamonaviy jamiyatning barqaror madaniy taraqqiyotiga xizmat qiladi.